
#FESTIVAL



Yo'ldoshobod mahalla fuqarolar yig'inida "Onalarga ehtirom" festivalining mahalla bosqichi o'tkazildi.

Ushbu tadbirda mahalla fuqarolar yig'inidan 5 ta nominatsiya g'oliblari va ularning yaqinlari ishtirok etdilar. Tanlov g'oliblari o'zlarining ibratli hayot yo'llari haqida so'zlab, farzandlarni tarbiyalash borasidagi fikrlari bilan o'rtoqlashdilar.

Tadbirda tuman hokimining xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahatchisi M.Mo'ydonova ham ishtirok etdi.



Tadbir so'nggida "Eng yaxshi namunali rahbar" X.Bo'tayeva, "Eng yaxshi tadbirkorlar onasi" X.Axmedova, "Eng yaxshi hunarmandlar onasi" K.O'tanova, "Eng yaxshi shifokorlar sulolasi onasi" B.Abduraximova, "Eng yaxshi vatan posbonlari onasi" R.Xaydarovalar esdalik sovg'alari va tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-05-19 14:01:31